

## Rayhon

### "Yashaylik"

Visit "[Yashaylik](#)" on [MotoLyrics.com](http://MotoLyrics.com)

Biz bu dunyoda faqat mehmon,  
Yodimizda bo'lsain bu har on,  
Baribir ketarmiz bir kun.  
Bu hayot sinovdir aslida,  
Shunday yashang ketar vaqtida,  
Uyalmaylik ketish uchun.  
Yuraklarda qolmasin alam,  
Yolg'iz yashamasin hech odam,  
Biling faqat mehr qolur.  
Juda oson qilish vahshiylik,  
Ulguring qilishga yaxshilik,  
Inson dardin inson olur.

Naqarot:

Yashaylik charchamay hech ham  
Sevgi, shodlik berishdan  
Bu zamin mehmonlariga  
Yashaylik berib baxt, shodlik  
Bir-birimizga  
Ikki yo'ldan o'tmaymiz taqdirda also.

Ayamaylik hech kimdan kulgu,  
So'nmasinlar qalbdagi tuyg'u,  
Axir bu umr g'animat.  
Biz bu dunyoga keldik yig'lab,  
Ketamiz kimnidir yig'latib,  
Bu achchiq, lekin haqiqat.  
Har soniya omonat bu jon,  
Bilsa hamki buni har inson,  
Qo'yar noto'g'ri qadamlar.  
Umrimizning daftarin faqat,  
To'ldirsin yaxshilik muhabbat,  
Yutmasin hech kim alamlar.

